



## XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 5 - sentabr

VI-69-153-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

### **Bulung'ur tumanida 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining avgust oyidagi ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida "Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi, kelgusidagi ustuvor vazifalar hamda hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish, 2022-yilda mehnat balansi va bandlik dasturini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi 2021-yil 14-dekabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 55-sonli bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida tumanda 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining avgust oyidagi ijrosi to'g'risidagi tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Xabibullayevning hisoboti eshilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish to'qqizinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Tumanda 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining avgust oyidagi ijrosi to'g'risida tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Xabibullayevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinbosarlari (D.Xabibullayev, A.Elmuurotov, A.Xalikulov, A.Rizayev, A.Buriboyev, N.Mamadiyarova), tumandagi bo'lim va tashkilot rahbarlariga:

2022-yilga mo'ljallangan xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturidagi tegishli bandlari ijrosini oyma-oy, o'z vaqtida va yanada sifatli bajarilishini ta'minlash bo'yicha tizimli tadbirlarni amalga oshirsh;

mahallalardagi tashabbuskor tadbirkorlarning g'oyalari asosida aholining ehtiyoji mavjud xizmatlarni yo'lga qo'yish bo'yicha loyihalarni kiritish, shuningdek, joylarda mazkur xizmatlarni ko'rsatuvchi "xizmat ko'rsatish majmualari"ni tashkil etish bo'yicha zaruriy tadbirlarni amalga oshirsin.

3. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Eshmurotov) xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan haqqoniy xizmat ko'rsatish hajmlari va ish o'rinlarini oylik hisobotlarda ko'rsatilishini monitoring qilib borsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga o'zlari saylangan mahallalardagi yangi tashkil etilgan xizmat ko'rsatish obyektlarini va bu orqali yaratilayotgan yangi ish o'rinlarini tahlil qilish tavsiya etilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), "Bulung'ur hayoti" gazetasi (G'.O'rolov)larga tumanda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar yuzasidan olib borilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) hamda ijrosini ta'minlash tuman hokimining birinchi o'rinbosari (D.Xabibullayev) zimmlariga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**S.Astonov**